


S. BURXONOV, O‘. XUDOYOROV, Q. NORQULOVA

MATEMATIKA

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining
3-sinfi uchun darslik

Ikkinchi nashr

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi
vazirligi tasdiqlagan*



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK kompaniyasi
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2016

Mas'ul muharrir **Akbar Bahromov** – fizika-matematika fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

Barno Abdullayeva – Nizomiy nomidagi TDPU kafedra mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor;

Nazira Ahmedova – Respublika ta'lim markazi «Boshlang'ich ta'lim» bo'limi boshlig'i;

Umida To'layeva – Toshkent viloyati Parkent tumanidagi 5-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar

1, 2, 3 ... – og'zaki bajariladigan mashqlar

1, 2, 3 ... – yozma bajariladigan mashqlar



– bo'sh kataklar o'rniga $>$, $<$, $=$ belgilaridan mosini qo'ying



– daftaringizga ko'chirib yozing va yodingizda tuting



– boshqotirmalar



– uyda bajariladigan mashqlar



– dars tugadi

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi hisobidan
ijara uchun chop etildi.

YUZLIK



2-SINFDA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

Ikki xonali sonlarni xonadan o‘tib qo‘shish

1. Yechilishini tushuntiring:

$18 + 7$

$34 + 6$

$67 + 29$

1-usul. Bo‘laklab qo‘shish:

$18 + 7 = \square$

$34 + 6 = \square$

$67 + 29 = \square$

$$\begin{array}{r} \wedge \\ 10 \ 8 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \wedge \\ 30 \ 4 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \wedge \quad \wedge \\ 60 \ 7 \quad 20 \ 9 \end{array}$$

$8 + 7 = 15$

$4 + 6 = 10$

$60 + 20 = 80$

$10 + 15 = 25$

$30 + 10 = 40$

$7 + 9 = 16$

$80 + 16 = 96$

2-usul. Ustun shaklida qo‘shish:

$$\begin{array}{r} 18 \\ + 7 \\ \hline 25 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 34 \\ + 6 \\ \hline 40 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 67 \\ + 29 \\ \hline 96 \end{array}$$

2. Qulay usulda yeching:

$28 + 7$

$53 + 27$

$49 + 48$

$76 + 17 + 4$

$74 + 9$

$38 + 15$


$64 + 29$

$27 + 38 + 9$

3. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:




4. Har bir shaklda nechta kesma bor?



5. Nigora do‘kondan 8 ta chiziqli daftar va undan 5 ta ortiq katak daftar sotib oldi. Nigora hammasi bo‘lib nechta daftar sotib olgan?

6. Shakldan 30 ta kvadratni sanab bera olasizmi?



7 $47 + 7$ $36 + 14$ $54 + 37$ $65 + 28 + 7$



$65 + 9$ $45 + 17$ $78 + 19$ $48 + 27 + 8$

8 Bog‘dagi bir tup olxo‘ridan 38 kg, ikkinchisidan esa undan 9 kg ko‘p hosil olindi. Hammasi bo‘lib nechta kilogramm olxo‘ri terib olingan?



Ikki xonali sonlarni xonadan o'tib ayirish

9. Yechilishini tushuntiring:

$40 - 6$

$74 - 9$

$86 - 28$

1-usul. Bo'laklab ayirish:

$$\begin{array}{r} 40 - 6 = \square \\ \wedge \\ 30 \quad 10 \end{array}$$

$10 - 6 = 4$

$30 + 4 = 34$

$$\begin{array}{r} 74 - 9 = \square \\ \wedge \\ 4 \quad 5 \end{array}$$

$74 - 4 = 70$

$70 - 5 = 65$

$$\begin{array}{r} 86 - 28 = \square \\ \wedge \\ 20 \quad 8 \end{array}$$

$86 - 20 = 66$

$66 - 8 = 58$

2-usul. Ustun shaklida ayirish:

$$\begin{array}{r} 40 \\ - 6 \\ \hline 34 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 74 \\ - 9 \\ \hline 65 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 86 \\ - 28 \\ \hline 58 \end{array}$$

10. Qulay usulda yeching:

$20 - 7$

$54 - 8$

$67 - 28$

$73 - 17 + 9$


$70 - 4$

$83 - 6$

$95 - 49$

$86 - 32 + 7$

11. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:



72 kg



45 kg



? kg

12. Kesmalar uzunligini o'lchang. AB kesma CD kesmadan necha millimetr qisqa?



13. Zumrad birinchi haftada 62 betli kitobning 28 betini, ikkinchi haftada esa qolganini o'qib bo'ldi. Zumrad ikkinchi haftada birinchi haftadagiga qaraganda necha bet ko'p o'qigan?

14. Soat sirtini shunday 6 bo'lakka bo'lingki, har bir bo'lakdagi sonlar yig'indisi bir xil bo'lsin.



15. $30 - 8$ $33 - 7$ $53 - 26$ $67 + 28 - 19$

16. $90 - 6$ $74 - 9$ $86 - 37$ $95 - 47 + 26$

17. Birinchi do'konga 53 kg, ikkinchisiga esa undan 15 kg kam go'sht keltirildi. Ikkala do'konga jami necha kilogramm go'sht keltirilgan?

Qavsli ifodalar

17. Yechilishini tushuntiring:

$$73 - \overbrace{(41 - 29)}^3 - \overbrace{(27 + 18)}^4 = 16$$

$$\begin{array}{r} -41 \\ -29 \\ \hline 12 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} +27 \\ +18 \\ \hline 45 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} -73 \\ -12 \\ \hline 61 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} -61 \\ -45 \\ \hline 16 \end{array}$$



Qavsli ifodalarda avval qavs ichidagi amal, keyin boshqa amallar chapdan o'ngga tomon tartib bilan bajariladi.

18. $72 - (18 + 15)$
 $(32 - 23) + 17$

$82 - (16 + 8) - (18 + 7)$
 $68 + 17 - (47 + 8) - (25 - 9)$

19. Botirda 24 ta yong‘oq bor. Ukasidagi yong‘oqlar unikidan 8 ta kam. Aka-ukada hammasi bo‘lib nechta yong‘oq bor?

Yechish rejasi:

- 1) Ukasidagi yong‘oqlar soni — $24 - 8$
- 2) Jami yong‘oqlar soni — $24 + (24 - 8)$


Yechilishi:

$$24 + (24 - 8) = 24 + 16 = 40$$

Javobi: 40 ta yong‘oq.

20. Birinchi egatdan 35 kg, ikkinchisidan esa undan 9 kg ortiq sabzi kovlab olindi. Ikkala egatdan hammasi bo‘lib necha kilogramm sabzi olingan?

21. Go‘niya yordamida to‘g‘ri burchaklarni, to‘g‘ri burchakdan kichik burchaklarni, to‘g‘ri burchakdan katta burchaklarni aniqlang:



22. 9 ta cho‘pdan 3 tasining har biri 3 bo‘lakka bo‘linsa, jami cho‘plar soni qancha bo‘ladi?



$$37 - (14 + 15)$$

$$49 - (54 - 17)$$

$$87 - (36 - 9) + 23$$

$$28 + 19 - (27 - 8)$$

24. Polizdan 43 ta tarvuz va undan 6 ta kam qovun uzildi. Hammasi bo'lib nechta tarvuz va qovun uzib olingan?



Qo'shishning guruhlash qonuni

25. Qo'shiluvchilarning o'rinlari qanday almashinishini va yechilishini tushuntiring:

$$5 + 6 = 6 + 5 = 11$$

$$24 + 16 = 16 + 24 = 40$$

$$7 + 8 + 5 = 8 + 7 + 5 = 5 + 7 + 8 = 5 + 8 + 7 = 20$$



Qo'shiluvchilarning o'rnini almashtirilgani bilan yig'indi o'zgarmaydi.

26. Yechilishini tushuntiring:

$$23 + 18 + 7 = (23 + 7) + 18 = 30 + 18 = 48$$

$$34 + 8 + 26 + 12 = (34 + 26) + (12 + 8) = 60 + 20 = 80$$



Qo'shiluvchilarning o'rnini almashtirish orqali ularni guruhlab qo'shish mumkin.

27. Guruhlab qo'shing:

$$12 + 7 + 8$$

$$21 + 46 + 19$$




$$38 + 7 + 12 + 23$$

$$14 + 9 + 6$$

$$35 + 17 + 25$$


$$9 + 26 + 14 + 41$$

28. Ko'pburchaklarning nomlarini ayting. Ularning har birida nechta tomon, burchak va uch bor?



29. Azizda 18 ta, Diloromda undan 7 ta ortiq, Xurshidada esa Diloromdagidan 12 ta ortiq daftar bor. Xurshidada nechta daftar bor?

30. 4 dan 9 gacha sonlarni bo'sh doirachalar ichiga shunday joylashtiringki, uchburchakning har bir tomonidagi sonlar yig'indisi 17 bo'lsin.



31. $6 + 9 + 4$ $14 + 17 + 6$ $27 + 8 + 3 + 32$

8 + 7 + 2 25 + 26 + 5 4 + 38 + 6 + 12

32. Birinchi qopda 37 kg, ikkinchi qopda undan 8 kg ortiq, uchinchi qopda esa ikkinchidagidan 3 kg ortiq kartoshka bor. Uchinchi qopda necha kilogramm kartoshka bor?

Sondan yig'indini ayirish

33. Yechilishini tushuntiring:

$$76 - (24 + 18) = 76 - 42 = 34$$

34. $25 - 7 + 5$ $64 - 18 + 9$ $82 - 27 + 39$


$$25 - (7 + 5) 64 - (18 + 9) 82 - (27 + 39)$$

35. Sport musobaqasida 34 nafar o'quvchi qatnashdi. Ulardan 15 nafari yugurish, 8 nafari uzunlikka sakrash, qolganlari balandlikka sakrash bo'yicha ishtirok etishdi. Balandlikka sakrashda necha nafar o'quvchi qatnashgan?

Yechish rejasi:


- 1) Yugurish va uzunlikka sakrash bo'yicha qatnashgan o'quvchilar soni — $15 + 8$
- 2) Balandlikka sakrash bo'yicha ishtirok etgan o'quvchilar soni — $34 - (15 + 8)$

36. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

Keltirildi	Qoldi	Sotildi
 15 kg	 3 kg 6 kg	? kg

37. 12 ta shashka donasini uch qator qilib shunday joylashtiringki, har bir qatorda 5 tadan shashka donasi bo'lsin.



38	$19 - 8 + 9$	$48 - 12 + 7$	$73 - 38 + 25$
	$19 - (8 + 9)$	$48 - (12 + 7)$	$73 - (38 + 25)$

39. Bog'da 60 tup daraxt bor. Ulardan 25 tupi olma, 17 tupi o'rik, qolganlari esa shaftoli daraxti. Bog'da necha tup shaftoli daraxti bor?



Sondan ayirmani ayirish

40. Yechilishini tushuntiring:

$$18 - (12 - 5) = 18 - 7 = 11$$

$$18 - 12 - 5 = 6 - 5 = 1$$



$$41. \quad 14 - (8 - 6) \quad 32 - (14 - 9) \quad 82 - (36 - 27)$$

$$14 - 8 - 6 \quad 32 - 14 - 9 \quad 82 - 36 - 27$$

42. Dasturxondagi vazalarda 16 ta olma bor edi. Ulardan 9 tasi yeyildi. Shundan keyin vazalardagi olmalar sonini 20 taga yetkazish uchun yana nechta olma kerak?

Yechish rejasi:

1) Vazalarda qoldi — $16 - 9$


2) Yana kerak — $20 - (16 - 9)$

43. Birinchi qatordagi har bir shaklning ikkinchi qatordagi tegishli shakldan farqini toping.



44. Sinfda 18 nafar o'g'il bola va 17 nafar qiz bola bor. 7 nafaridan tashqari barcha o'g'il bolalar futbol to'garagiga qatnashadi. Sinf-dagi o'quvchilardan necha nafari futbol to'garagiga qatnashmaydi?

45. Berilgan shaklda nechta kvadrat bor? Shakldagi cho'plardan shunday bittasini olib tashlangki, natijada 4 ta kvadrat qolsin.



$$46. \quad 12 - (7 - 5)$$

$$12 - 7 - 5$$

$$47 - (23 - 6)$$

$$47 - 23 - 6$$

$$94 - (45 - 28)$$

$$94 - 45 - 28$$

47



Do'konda peshindan keyin qolgan 54 ta muzqaymoqdan 38 tasi sotildi. Agar ertalab do'konga 100 ta muzqaymoq keltirilgan bo'lsa, kun bo'yi nechta muzqaymoq sotilgan?



Ko'paytirish va bo'lish orasidagi bog'lanish

48. Rasm asosida ko'paytirish va bo'lishga doir uch xil masala tuzing va ularni yeching:



1) 4 ta likopchanning har birida 3 tadan olma bor. Likopchalardagi jami olmalar nechta?

Yechilishi: $3 \cdot 4 = 12$. **Javob:** 12 ta olma.

2) 12 ta olma 4 ta likopchaga teng qo'yildi. Har bir likopchada nechtadan olma bor?

Yechilishi: $12 : 4 = 3$. **Javob:** 3 tadan olma.

3) 12 ta olma likopchalarga 3 tadan qo'yildi. Olmalar nechta likopchaga qo'yilgan?

Yechilishi: $12 : 3 = 4$. **Javob:** 4 ta likopcha.



Ikki sonning ko'paytmasi ko'paytuvchilardan biriga bo'linsa, ikkinchi ko'paytuvchi hosil bo'ladi.

49. Katakalar o'rniga tegishli sonlarni topib qo'ying:

$$3 \cdot \square = 18$$

$$54 : \square = 6$$

$$\square : 8 = 7$$

$$\square \cdot 9 = 72$$

$$81 : \square = 9$$

$$\square : 7 = 8$$

50. Rasm asosida ko'paytirish va bo'lishga doir uch xil masala tuzing va ularni yeching:



51. Ixtiyoriy ko'rinishdagi uchburchak, to'rtburchak va beshburchak chizing.

52. 1 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni shunday qo'yingki, qator va ustunlar bo'yicha yig'indi 15 bo'lsin.



4		

53

$$2 \cdot \square = 14$$

$$48 : \square = 8$$

$$\square : 5 = 8$$



$$\square \cdot 6 = 54$$

$$56 : \square = 7$$

$$\square : 9 = 7$$

54

Rasm asosida ko'paytirish va bo'lishga doir uch xil masalalar tuzing va ularni yeching:



0 va 1 sonlari ishtirokida ko'paytirish

55. Yechilishini tushuntiring:

$$0 \cdot 7 = 0 \quad 0 \cdot 53 = 0 \quad 5 \cdot 0 = 0 \quad 99 \cdot 0 = 0$$



0 ni har qanday songa ko'paytirsa yoki har qanday sonni 0 ga ko'paytirsa, 0 hosil bo'ladi.

56. Yechilishini tushuntiring:

$$1 \cdot 9 = 9 \quad 1 \cdot 72 = 72 \quad 6 \cdot 1 = 6 \quad 84 \cdot 1 = 84$$



1 ni har qanday songa ko'paytirsa yoki har qanday sonni 1 ga ko'paytirsa, shu sonning o'zi hosil bo'ladi.

57. $0 \cdot 6 + 27 \cdot 1$ $27 : 3 + 24 \cdot 1 - 26$
 $1 \cdot 7 - 79 \cdot 0$ $6 \cdot 8 + 0 \cdot (62 - 26)$


58. Gulzordan Shahnoza 7 ta, Dilnoza undan 3 marta ko'p gul uzdi. Gulzordan hammasi bo'lib nechta gul uzilgan?

59. $0 \cdot 25 \square 4 \cdot 1$ $3 \cdot 0 + 27 \square 57 \cdot 0 + 0 \cdot 35$



$43 \cdot 0 \square 0 \cdot 8$ $10 \cdot 1 - 4 \square 1 \cdot 36 - 28 \cdot 1$

60. Doira va aylananing radiusi va diametrlarini millimetr hisobida o'lchang.



61. 12 ta shashka donasini to'rt qator qilib shunday joylashtiringki, har bir qatordagi shashkalar soni 4 tadan bo'lsin.



62. $5 \cdot 0 + 1 \cdot 9$ $3 \cdot 9 + 24 \cdot 1 - 18$



$6 \cdot 1 - 8 \cdot 0$ $(73 - 34) \cdot 1 + 57$

63. Qovunning massasi 6 kg, handalakning massasi undan 4 kg kam. Qovunning massasi handalaknikidan necha marta ortiq?



0 ni songa, sonni 1 ga va sonni o'zini o'ziga bo'lish

64. Yechilishini tushuntiring:

1) $0 : 8 = 0$ $0 : 67 = 0$ ~~$7 : 0$~~ ~~$83 : 0$~~



0 ni har qanday songa bo'lganda 0 chiqadi. Sonni 0 ga bo'lish mumkin emas!

2) $9 : 1 = 9$ $17 : 1 = 17$ $78 : 1 = 78$



Har qanday sonni 1 ga bo'lganda bo'lingan sonning o'zi chiqadi.

3) $8 : 8 = 1$ $16 : 16 = 1$ $100 : 100 = 1$



Har qanday sonni o'zini o'ziga bo'lganda 1 soni hosil bo'ladi.

65. $0 : 38$ $48 : 0$ $3 : 1 : 3$ $23 : 1 - 0 : 99$
 $25 : 1$ $81 : 81$ $0 : 7 : 6$ $59 : 59 + 59 : 1$

66. Bir-biridan 100 m uzoqlikda turgan ikki o'quvchi bir-biri tomon yura boshlashdi. Birinchi o'quvchi 25 m yurganda, ikkinchisi 35 m yurdi. Ular orasida necha metr masofa qoldi?

67. $72 : 8 + 8 : 1 \cdot 9$ $36 : 4 + 27 \cdot 1 - 23 : 23$
 $(6 \cdot 9 - 24 : 4) : 1$ $7 \cdot 8 + 0 : (58 - 46) - 47$

68. Sirkuldan foydalanib radiusi 2 sm va 3 sm bo'lgan aylana va doiralar chizing.

69. Sherzod birinchi qavatdan ikkinchi qavatga ko'tarilish uchun 18 ta zinani bosib o'tdi. U ikkinchi qavatdan to'rtinchi qavatga chiqquncha yana nechta zinani bosishi kerak? Birinchidan oltinchi qavatga chiqquncha-chi?



70

$$53 : (37 + 16) : 1 \cdot 8$$

$$42 : 6 + 0 : 3 + 58 : 1 \cdot 1$$



$$(63 : 7 + 8 \cdot 6) : 57$$

$$9 \cdot 5 + 9 : (67 - 58) - 29$$

71

Do'kondan 4 quti chinni idishlar sotib olindi. Har bir qutida 1 ta choynak va 6 ta piyola bor. Jami nechta chinni idish sotib olingan?



Ko'paytuvchilarning o'rinlarini almashtirish xossasi

72. Yechilishini tushuntiring:

$$3 \cdot 8 = 24$$

$$8 \cdot 3 = 24$$

$$\text{Demak: } 3 \cdot 8 = 8 \cdot 3.$$



Ko'paytuvchilarning o'rne almashgani bilan ko'paytma o'zgarmaydi.

73. Ko'paytuvchilarning o'rnini almashtirib yeching:

$$2 \cdot 3$$

$$7 \cdot 8$$

$$4 \cdot 9 + 3 \cdot 8$$

$$7 \cdot 9 - 6 \cdot 8$$

$$3 \cdot 8$$

$$9 \cdot 6$$

$$5 \cdot 8 - 4 \cdot 7$$

$$6 \cdot 7 + 3 \cdot 9$$

$$\text{Namuna: } 2 \cdot 3 = 3 \cdot 2 = 6.$$

74. Tokzordan 3 ta savatga husayni va 2 ta yashikka toifi uzildi. Har bir savatdagi husayni 6 kg, har bir yashikdagi toifi 8 kg. Hammasi bo'lib nechta kilogramm uzum uzilgan?

75. Uzunligi 6 sm 6 mm va 9 sm 8 mm bo'lgan ikkita kesma chizing.

76. 12 m arqon teng uch joyidan qirgilsa, har bir bo'lakning uzunligi necha metr bo'ladi?



77. Jadval bo'yicha misollar tuzing va yeching:

Qo'shiluvchi	23	$7 \cdot 5$	$4 \cdot 8$	$8 \cdot 3$	$3 \cdot 9$
Qo'shiluvchi	$6 \cdot 8$	43	$6 \cdot 7$	$5 \cdot 9$	$7 \cdot 8$



Namuna: $23 + 6 \cdot 8 = 23 + 48 = 71$.

78. Qopda 40 kg kartoshka bor edi. 8 haftadan keyin qopda 16 kg kartoshka qoldi. Haftasiga necha kilogrammdan kartoshka ishlatilgan?



Ko'paytirish va bo'lish jadvallari

79. Jadvallardan foydalanishni o'rganing.

1) Ko'paytirish jadvali:

·	1	2	3	4	5	6	7	8	9
2	2	4	6	8	10	12	14	16	18
3	3	6	9	12	15	18	21	24	27
4	4	8	12	16	20	24	28	32	36
5	5	10	15	20	25	30	35	40	45
6	6	12	18	24	30	36	42	48	54
7	7	14	21	28	35	42	49	56	63
8	8	16	24	32	40	48	56	64	72
9	9	18	27	36	45	54	63	72	81

2) Bo'lish jadvali:

4	6	8	10	12	14	16	18	:2
6	9	12	15	18	21	24	27	:3
8	12	16	20	24	28	32	36	:4
10	15	20	25	30	35	40	45	:5
12	18	24	30	36	42	48	54	:6
14	21	28	35	42	49	56	63	:7
16	24	32	40	48	56	64	72	:8
18	27	36	45	54	63	72	81	:9
2	3	4	5	6	7	8	9	

80. $48 + 8 \cdot 5$ $7 \cdot 8 - 38$ $63 : 7 + 8 \cdot 9$
 $54 - 18 : 2$ $27 : 3 + 74$ $6 \cdot 8 - 72 : 8$

81. 24 ta olma va 16 ta nok 4 ta vazaga bir xil taqsimlanib, dasturxonga qo'yildi. Har bir vazaga nechtadan olma va nechtadan nok qo'yilgan? Har bir vazada nechtadan meva bor?

82. Arifmetik amallardan foydalanib 3 ta 5 raqami bilan: a) 2 ni; b) 4 ni hosil qiling.



83. $5 \cdot 9 - 27$ $43 - 27 : 3$ $72 : 8 + 7 \cdot 8$
 $36 : 4 + 68$ $56 + 4 \cdot 9$ $6 \cdot 7 - 63 : 9$




84. Barno 9 yoshda, buvisi 63 yoshda. Buvisining yoshi Barnonikidan necha marta ortiq? Buvisi nabirasidan necha yosh katta?



Sonning qismini, qismi bo'yicha sonning o'zini topish

85. 1) Tasma uzunligining yarmisini toping:




Yechilishi: $12 : 2 = 6$ (sm). **Javob:** 6 sm.



Sonni ikkiga bo'lganda hosil bo'lgan son shu sonning ikkidan bir qismi yoki yarmi deb ataladi.

2) Tasma uzunligining uchdan bir qismini toping:




Yechilishi: $12 : 3 = 4$ (sm). **Javob:** 4 sm.



Sonni uchga bo'lganda hosil bo'lgan son shu sonning uchdan bir qismi deyiladi.

3) Tasma choragining uzunligini toping:



Yechilishi: $12 : 4 = 3$ (sm). **Javob:** 3 sm.



Sonni to'rtga bo'lganda hosil bo'lgan son shu sonning to'rttdan bir qismi yoki choragi deb ataladi.

86. Tortning qanday qismlari tasvirlangan?



87. 1) 6, 14, 20 sonlarining yarmini toping.
2) 6, 15 sonlarining uchdan bir qismini toping.
3) 8, 16, 24 sonlarining choragini toping.

88. 1) Tarvuzning yarmi 5 kg. Butun tarvuzning o'zi necha kilogrammga teng?

Yechilishi: $5 \cdot 2 = 10$ (kg). **Javob:** 10 kg.

2) Qovunning uchdan bir qismi 2 kg. Butun qovunning o'zi necha kilogrammga teng?

Yechilishi: $2 \cdot 3 = 6$ (kg). **Javob:** 6 kg.

3) Qovoqning choragi 2 kg. Butun qovoqning o'zi necha kilogrammga teng?

Yechilishi: $2 \cdot 4 = 8$ (kg). **Javob:** 8 kg.

89. 60 50 40 30 20 10 sonlari orasiga «+»



va «-» ishoralaridan tanlab shunday qo'yingki, natija 70 chiqsin.

90. 4, 8, 12, 16 va 20 sonlarining yarmi va choragini toping. 24 va 27 sonlarining uchdan bir qismi qancha bo'ladi?



91. Savatdagi anorning choragi 6 donani tashkil etadi. Savatdagi anorning yarmi necha donani tashkil etadi? Uchdan bir qismi-chi?




JADVALDAN TASHQARI KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

20 · 3, 3 · 20 ko'rinishdagi ifodalar

92. Yechilishini tushuntiring:

1) $20 \cdot 3 = \square$



2 o'nlik + 2 o'nlik + 2 o'nlik = 6 o'nlik
2 o'nlik · 3 = 6 o'nlik. **Demak:** $20 \cdot 3 = 60$.



2) $3 \cdot 20 = \square$

Ko'paytuvchilarning o'zni almashgani bilan ko'paytma o'zgarmaydi. Shuning uchun:
 $3 \cdot 20 = 20 \cdot 3 = 60$. **Demak:** $3 \cdot 20 = 60$.


93. $30 \cdot 2$ $10 \cdot 4 + 24$ $30 \cdot 3 - 4 \cdot 20$
 $5 \cdot 20$ $20 \cdot 2 - 37$ $30 \cdot 2 + 2 \cdot 20$

94. Bir egatdan 4 yashik, ikkinchisidan 5 yashik lavlagi kovlab olindi. Bitta yashikdagi lavlagi 20 kg bo'lsa, har bir egatdan qancha lavlagi olingan? Ikkinchi egatdan birinchisiga qaraganda necha kilogramm ortiq lavlagi kovlab olingan?

95. Ko'pburchaklarning perimetrini santimetr va millimetrlar hisobida toping:



96. 6 ta kvadrat berilgan. Shunday ikkita cho'pni olib tashlangki, natijada 3 ta kvadrat qolsin.



97

$20 \cdot 4 + 18$

$84 - 30 \cdot 2$

$30 \cdot 3 - 40 \cdot 2$



$3 \cdot 30 - 37$

$23 + 2 \cdot 30$

$10 \cdot 5 + 2 \cdot 20$

98

Do'kondan Lobar 20 ta, Laziz esa undan 3 marta ko'p daftar sotib oldi. Lobar va Laziz hammasi bo'lib nechta daftar sotib olishdi?



60 : 3, 100 : 2 ko'inishdagi ifodalar

99. Yechilishini tushuntiring:

1) $60 : 3 = \square$

6 o'nlik : 3 = 2 o'nlik. Demak: $60 : 3 = 20$.

2) $100 : 2 = \square$

10 o'nlik : 2 = 5 o'nlik. Demak: $100 : 2 = 50$.

100. $60 : 2$ $80 : 4$ $90 : 3$ $70 : 7$ $100 : 5$



101. 70 kunda matematika darsi nechta marta bo'ladi? Matematika darsi bir haftada 5 marta bo'lishini hisobga oling.

102. Jadval bo'yicha misollar tuzing va yeching:

Kamayuvchi	$80 : 4$	$40 \cdot 2$	$30 \cdot 3$	$50 \cdot 2$	$80 : 2$
Ayiriluvchi	$60 : 6$	$90 : 3$	$4 \cdot 20$	$60 : 2$	$2 \cdot 20$

Namuna: $80 : 4 - 60 : 6 = 20 - 10 = 10$.

103. Shakllarning tomonlarini o'lchang. Ularning perimetri va yuzlarini toping. Shakllarning har biri qanday nomlanadi?



104. Yer maydonini to'rtburchak shaklida o'rash uchun eni 1 m dan bo'lgan 12 ta panjara keltirildi. Panjara bilan o'raladigan maydonning tomonlari qanday bo'lsa, uning yuzi eng katta bo'ladi? Bunday maydonning yuzi necha kvadrat metrga teng bo'lishini hisoblang.



105. $80 : 4 \square 40 : 2 + 40$ $60 : 2 \square 20 \cdot 3 - 100 : 2$



$60 : 3 \square 90 : 3 - 10$ $50 \cdot 2 \square 100 : 5 + 40 \cdot 2$



$40 : 2 \square 60 : 2 - 20$ $100 : 2 \square 80 : 2 + 90 : 3$

106. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va yeching:

Bor edi — 80 ta muzqaymoq.

Tushgacha sotildi — choragi.

Tushdan keyin sotildi — yarmi.



Qoldi — ? ta.

90:30 ko'inishdagi ifodalar

107. Yechilishini tushuntiring:

$$90 : 30 = \square$$

$$9 : 3 = 3. \text{ Demak: } 90 : 30 = 3.$$



Nol bilan tugagan sonni nol bilan tugagan songa bo'lish uchun ularning noldan oldin turgan sonlarini bo'lish yetarli.

108. $40 : 20$ $60 : 30$ $80 : 40$ $50 : 10$
 $30 : 10$ $80 : 20$ $60 : 20$ $50 : 50$

109. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va yeching:

Hammasi — 80 m.

Bitta parda uchun — 20 m.

Tikilishi kerak — 3 ta parda.

Ortib qoladi — ? m.

110. $27 + 40 : 20$ $9 \cdot 6 - 90 : 30$
 $43 - 80 : 20$ $80 : 40 + 20 \cdot 4$

111. Kesmalarni o'lchang. AB kesma CD kesmadan necha marta qisqa?



112. Musobaqada 100 m masofani uch o'rtoqdan biri 19 sekundda, ikkinchisi 20 sekundda, uchinchisi esa 18 sekundda bosib o'tdi. Agar Azim Salimdan, Olim Azimdan tez yugurgan bo'lsa, ularning har biri masofani qancha vaqtda bosib o'tgan?



113

$35 - 90 : 30$

$40 : 20 + 40 : 5$

$8 \cdot 7 - 60 : 30$



$59 + 60 : 20$

$70 : 10 - 48 : 8$

$80 : 20 + 30 \cdot 2$

114

Oshxonada kuniga 20 kg dan sabzi sarflaydi. Agar oshxonada 67 kg sabzi qolgan bo'lsa, 4 kunga yetishi uchun yana qancha sabzi sotib olish kerak?



Yig'indini songa, sonni yig'indiga ko'paytirish

115. Yechilishini tushuntiring:

1) $(2 + 3) \cdot 4 = \square$

2) $4 \cdot (2 + 3) = \square$

1-usul. 1) $(2 + 3) \cdot 4 = 5 \cdot 4 = 20$

2) $4 \cdot (2 + 3) = 4 \cdot 5 = 20$



Yig'indini songa ko'paytirish uchun qavs ichidagi yig'indi hisoblanib, natija songa ko'paytiriladi. Bu qoida sonni yig'indiga ko'paytirish uchun ham o'rinli.

2-usul. 1) $(2 + 3) \cdot 4 = 2 \cdot 4 + 3 \cdot 4 = 8 + 12 = 20$

2) $4 \cdot (2 + 3) = 4 \cdot 2 + 4 \cdot 3 = 8 + 12 = 20$



Yig'indini songa ko'paytirish uchun qavs ichidagi har bir qo'shiluvchi songa ko'paytiriladi, keyin ko'paytmalar qo'shiladi. Bu qoida sonni yig'indiga ko'paytirish uchun ham o'rinli.

116. 6 ta vazaning har birida 4 donadan olma va 2 donadan nok bor. Vazalarda hammasi bo'lib necha dona meva bor?

Yechish rejasi:

1) Har bir vazadagi mevalar soni — $4 + 2$

2) 6 ta vazadagi mevalar soni — $(4 + 2) \cdot 6$

Hisoblash: $(4 + 2) \cdot 6 = 6 \cdot 6 = 36$.

Javob: 36 dona meva.

117. 7 ta guldonning har birida 5 donadan qizil va 4 donadan sariq atirgul bor. Jami atirgullar necha dona?

118. $(3 + 4) \cdot 2$ $(7 + 3) \cdot 5$ $(3 + 4) \cdot 7$
 $6 \cdot (5 + 3)$ $6 \cdot (8 + 1)$ $8 \cdot (5 + 3)$

119. Shunday to'rtta sonni topingki, bu sonlardan biri 4 ga bo'linganda, ikkinchisi 4 ga ko'paytirilganda, uchinchisiga 4 qo'shilganda, to'rtinchisidan 4 ayirilganda javob 4 bo'lishi kerak.



120. $(7 + 2) \cdot 3$ $(5 + 2) \cdot 9$ $(2 + 7) \cdot 6$
 $7 \cdot (6 + 3)$ $8 \cdot (3 + 5)$ $9 \cdot (1 + 7)$



121. Sarvar, Shahnoza va Gulnozaning har birida 4 tadan katak va 5 tadan chiziqli daftar bor.



Ularda jami nechta daftar bor?

23 · 4, 4 · 23 ko'rinishdagi ifodalar

122. Yechilishini tushuntiring: $23 \cdot 4 = \square$ $4 \cdot 23 = \square$

$$23 \cdot 4 = (20 + 3) \cdot 4 = 20 \cdot 4 + 3 \cdot 4 = 80 + 12 = 92$$

20 3

$$4 \cdot 23 = 4 \cdot (20 + 3) = 4 \cdot 20 + 4 \cdot 3 = 80 + 12 = 92$$

20 3

$$123. \quad 14 \cdot 2 \quad 15 \cdot 4 \quad 46 \cdot 2 \quad 16 \cdot 6$$

$$3 \cdot 27 \quad 7 \cdot 12 \quad 8 \cdot 12 \quad 2 \cdot 19$$

124. Dilbar kuniga 6 sahifadan kitob o'qidi. 14 kun o'qiganidan keyin kitobning 12 sahifasi qoldi. Kitob necha sahifadan iborat?

125. O'lchov qiymatlarini millimetrlarda ifodalang:

1 sm 4 mm	4 sm 6 mm	7 sm 8 mm
2 sm 8 mm	5 sm 3 mm	8 sm 1 mm

Namuna: $2 \text{ sm } 4 \text{ mm} = 20 \text{ mm} + 4 \text{ mm} = 24 \text{ mm}$.

126. Ikki xonali shunday son topingki, uni 7 ga ko'paytirib, chiqqan sondan 1 ayirilganda 90 hosil bo'lsin. Bu qanday son?



$$127. \quad 11 \cdot 3 \quad 25 \cdot 4 \quad 45 \cdot 2 \quad 17 \cdot 4$$

$$2 \cdot 33 \quad 6 \cdot 12 \quad 9 \cdot 11 \quad 2 \cdot 19$$



128. Quyonlar uchun 50 ta sabzi olib kelindi. 12 ta quyonning har biriga 4 tadan sabzi berildi. Nechta sabzi ortib qoldi?



O'tilganlarni mustahkamlash

$$129. \quad 20 \cdot 2 \quad 20 \cdot 5 \quad 30 \cdot 3 \quad 20 : 2 \quad 60 : 2$$

$$3 \cdot 20 \quad 2 \cdot 30 \quad 2 \cdot 40 \quad 40 : 4 \quad 80 : 2$$

$$130. \quad (5 + 4) \cdot 1 \quad 4 \cdot (2 + 3) \quad (2 + 6) \cdot 7$$

$$2 \cdot (4 + 6) \quad (5 + 2) \cdot 5 \quad 8 \cdot (4 + 5)$$

$$(3 + 4) \cdot 3 \quad 6 \cdot (2 + 3) \quad (3 + 4) \cdot 9$$

$$131. \quad 20 \cdot 4 - 9 \cdot 8 \qquad 40 \cdot 2 - 7 \cdot 6 \qquad 2 \cdot 40 + 80 : 8$$

$$30 \cdot 2 + 5 \cdot 8 \qquad 20 \cdot 5 - 7 \cdot 9 \qquad 3 \cdot 20 + 40 : 2$$

$$132. \quad 20 \cdot 3 \square 72 : 8 + 50 \qquad 80 : 2 + 48 \square 30 \cdot 3$$

$$\geq = \quad 30 \cdot 2 \square 8 \cdot 9 - 12 \qquad 2 \cdot 40 - 60 \square 80 : 4$$

133. Rasm va uning ostidagi yozuv asosida masala tuzing va uni yeching:




1 ta paket un —
18 ta non yopiladi



4 ta paket un —
? ta non

134. Uchta kesma chizing. Birining uzunligi 12 sm, ikkinchisining uzunligi undan 4 marta qisqa, uchinchi ikkinchisidan 6 sm uzun bo'lsin.

135. 2 ta cho'pning o'rnini shunday o'zgartiringki, kvadratlar soni 6 ta bo'lib qolsin.



$$136. \quad 12 + 3 \cdot 4 \qquad 24 + 90 : 30 \qquad 12 \cdot 4 + 3 \cdot 16$$

$$47 - 5 \cdot 8 \qquad 12 - 80 : 40 \qquad 24 \cdot 3 - 4 \cdot 18$$

137. To'pda 60 m duxoba bor. Birinchi xaridorga uning yarmi, ikkinchisiga qolgan duxobaning uchdan bir qismi sotildi. Ikkinchi xaridor necha metr duxoba sotib olgan?

$$138. \quad \begin{array}{lll} 10 : 10 & 50 : 10 & 40 : 20 + 2 \\ 20 : 10 & 40 : 40 & 90 : 30 - 3 \end{array}$$


$$139. \quad \begin{array}{llll} 13 \cdot 2 & 16 \cdot 4 & 18 \cdot 5 & 12 \cdot 7 \\ 2 \cdot 16 & 4 \cdot 19 & 8 \cdot 12 & 2 \cdot 46 \end{array}$$

$$140. \quad \begin{array}{lll} 16 \cdot 2 + 28 & 5 \cdot 14 + 24 & 29 \cdot 2 + 3 \cdot 14 \\ 24 \cdot 3 - 32 & 8 \cdot 12 - 56 & 32 \cdot 3 - 13 \cdot 6 \end{array}$$

141. Maktab bog'ida birinchi tupdan terilgan 96 kg olma 8 ta yashikka solindi. Ikkinchi tupdan terilgani esa 6 ta yashikka joylandi. Ikkinchi tupdan necha kilogramm olma terilgan?

142. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va yeching:
Hammasi — 36 ta anjir.
Har bir likopchaga qo'yish kerak — 6 tadan.
Likopchalar — 4 ta.
Yetishmaydi — ? ta likopcha.

143. Shaklda nechta uchburchak va nechta to'rtburchak yashiringan?



144. Shunday to'rtta turli sonlarni topingki, ularning ko'paytmasi 70 ga teng bo'lsin.



$$145. \quad \begin{array}{llll} 18 \cdot 3 & 15 \cdot 4 & 32 \cdot 3 & 11 \cdot 9 \\ 3 \cdot 28 & 5 \cdot 17 & 7 \cdot 14 & 3 \cdot 29 \end{array}$$



146. Savatda 32 ta anor bor. Savatdagi anorlardan yarmini Anvar, choragini Marjona oldi. Savatda nechta anor qoldi?



Harfli ifodalarning qiymatini topish

147. Yechilishini tushuntiring:

1) Agar $a = 48$, $b = 23$ bo'lsa, $a + b$ va $a - b$ ifodalarning qiymati bunday topiladi:



$$a + b = 48 + 23 = 71; \quad a - b = 48 - 23 = 25$$

2) Agar $a = 8$, $b = 4$ bo'lsa, $a \cdot b$ va $a : b$ ifodalarning qiymati bunday topiladi:



$$a \cdot b = 8 \cdot 4 = 32; \quad a : b = 8 : 4 = 2$$

148. Agar $a = 57$, $b = 35$ bo'lsa, $a + b$ va $a - b$ ifodalarning qiymatini toping.

149. Agar $a = 3$, $b = 4$ bo'lsa, jadval bo'yicha ifodalar tuzing va ularning qiymatini toping:

$a \cdot$	12	14	15	18	20	23	26	29	33
$b \cdot$	10	12	13	15	17	18	20	22	25

Namuna: $a \cdot 12 = 3 \cdot 12 = 36$.

150. Maktab tajriba maydoniga 8 kg kartoshka ekilib, undan 6 marta ko'p hosil olindi. Olingan hosil ekilganidan qancha ko'p?

151. 1) Tomoni $a = 3$ sm va $b = 5$ sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Uning perimetri va yuzini toping.

2) Tomoni $a = 4$ sm bo'lgan kvadrat chizing. Uning perimetri va yuzini toping.

152. To'g'ri to'rtburchakni ikkita kesma bilan kesib, 8 ta uchburchak hosil qiling.



153. $a + b$ va $a - b$ ifodalarning qiymatini toping:

a	24	29	38	47	53	57	66	68	73
b	15	18	23	29	34	38	20	23	27



Namuna: $a + b = 24 + 15 = 39$

$$a - b = 24 - 15 = 9.$$

154. 8 ta bir xil bankada 16 kg bodring tuzlandi. Ortib qolgan 12 kg bodringni tuzlash uchun



yana nechta banka kerak bo'ladi?

155. Agar $a = 1$, $b = 2$, $c = 3$, $d = 4$ ekanligi ma'lum bo'lsa, $a + b + c + d$ ifodaning qiymatini toping.

156. Agar $a = 3$, $b = 4$ bo'lsa, ifodalar qiymatini toping:

6	12	18	21	24	27	30	60	90	: a
4	8	12	20	28	32	36	40	80	: b

Namuna: $6 : a = 6 : 3 = 2$.

157. Uzilgan a kg uzum b ta yashikka joylangandan keyin yana d ta bo'sh yashik qoldi. Ularni ham to'ldirish uchun yana qancha uzum uzish kerak? Bunda $a = 54$, $b = 6$, $d = 4$.

Yechish rejasi: 1) 1 ta yashikka — $a : b$ kg.

2) d ta yashikka — $(a : b) \cdot d$ kg.


Hisoblash: $(a : b) \cdot d = (54 : 6) \cdot 4 = 9 \cdot 4 = 36$.

Javob: 36 kg uzum uzish kerak.

158. Sog'ilgan a litr sut b ta bankaga quyildi. Ortib qolgan d ta bankaga necha litr sut sig'adi? Bunda $a = 12$, $b = 4$, $d = 2$ deb oling.

159. To'g'ri to'rtburchakning bo'yi a , eni b bo'lsa, yuzi $a \cdot b$ ni toping:

a	3 sm	2 sm	3 sm	5 sm	8 sm
b	2 sm	3 sm	4 sm	4 sm	6 sm



Namuna: $a \cdot b = 3 \cdot 2 = 6$ (kv. sm). $b = 2$ sm

160. Uy tomiga 35 ta kaptar kelib qo'ndi. Birozdan keyin ulardan 17 tasi uchib ketdi. Shundan so'ng 8 ta kaptar qaytib keldi. So'ngra 14 ta kaptar uchib ketib, 7 tasi yana qaytib keldi. Tomda nechta kaptar qoldi?



161. $a = 20$, $b = 4$ bo'lsa, ifodalarning qiymatini toping:



$$\begin{array}{cccc}
 3 \cdot a & (30 - a) \cdot 8 & (a + 52) : 9 & a \cdot 5 - 100 \\
 a : b & a \cdot b + a & a : b - b & a : b + a \cdot b
 \end{array}$$

162. Sotib olingan a metr chit b ta bir xil ko'rpa-chani qoplashga yetdi. Shunday d ta ko'rpa-chani qoplash uchun yana necha metr chit kerak bo'ladi? $a = 42$, $b = 7$, $d = 3$ deb oling.



Yig'indini songa bo'lish

163. Yechilishini tushuntiring:

$$(9 + 6) : 3 = \square$$

1-usul. $(9 + 6) : 3 = 15 : 3 = 5$





Yig'indini songa bo'lishda avval yig'indi hisoblanadi, keyin songa bo'linadi.

2-usul. $(9 + 6) : 3 = 9 : 3 + 6 : 3 = 3 + 2 = 5$



Yig'indini songa bo'lishda avval qo'shiluvchilarning har biri songa bo'linadi, keyin bo'linmalar qo'shiladi.

164. $(8 + 6) : 2$ $(9 + 12) : 3$ $(24 + 32) : 8$
 $(10 + 5) : 5$ $(8 + 16) : 4$ $(18 + 54) : 9$

165. Birinchi to'pda 30 m, ikkinchi to'pda 24 m shoyi bor. Agar bitta ko'ylak uchun 3 m shoyi sarflansa, ikki to'pdagi jami shoyidan nechta ko'ylak tikish mumkin?

Yechish rejasi:


- 1) Ikkita to'pda — $(30 + 24)$ m.
- 2) Tikish mumkin — $(30 + 24) : 3$ ta.

Hisoblash: $(30 + 24) : 3 = 30 : 3 + 24 : 3 = 10 + 8 = 18$.

Javob: 18 ta ko'ylak.


166. Tomonlari a va b bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning perimetrini toping:

a	4 sm	5 sm	8 sm	15 sm
b	3 sm	6 sm	12 sm	25 sm




Namuna: $(a + b) \cdot 2 = (4 + 3) \cdot 2 = 7 \cdot 2 = 14 \text{ (sm)}$.

167. 3-A sinfdan 32 nafar, 3-B sinfdan 24 nafar o'quvchi 4 ta avtobusda teatrga borishdi. Avtobuslarga necha nafardan o'quvchi o'tirgan?

168. Arifmetik amallar yordamida 4 ta 3 raqamidan  30 sonini hosil qila olasizmi? 6 ta 3 raqamidan 31 sonini-chi?

169 $(12 + 8) : 2$ $(15 + 18) : 3$ $(24 + 30) : 6$

 $(12 + 6) : 3$ $(16 + 24) : 4$ $(35 + 28) : 7$

170 Sinfdan 17 nafar o'g'il bola va 19 nafar qiz bola o'qiydi. Partalar 3 qatordan qo'yilgan. Har bir partalar qatorida necha nafar o'quvchi o'tiradi?



39 : 3 ko'rinishdagi ifodalar

171. Yechilishini tushuntiring:

$$39 : 3 = \square$$

$$39 : 3 = (30 + 9) : 3 = 30 : 3 + 9 : 3 = 10 + 3 = 13$$


172. $28 : 2$ $55 : 5$ $63 : 3$ $84 : 4$

$33 : 3$ $62 : 2$ $88 : 8$ $96 : 3$

173. Ozoda va Rahima gulzordan 44 ta gul uzib, 4 ta bir xil guldasta tayyorlashdi. 9 ta guldasta tayyorlash uchun nechta gul kerak?

174. Ikkita kesma chizing. Birinchi kesmaning uzunligi 88 mm, ikkinchisidiki esa birinchi kesma uzunligidan 2 marta qisqa bo'lsin.

175. 3 ta cho'pning o'rnini shunday o'zgartiringki, kvadratlar soni 5 ta bo'lib qolsin.



176 $22 : 2$ $33 : 3$ $77 : 7$ $93 : 3$
 $36 : 3$ $48 : 4$ $82 : 2$ $99 : 9$



177. Hayvonot bog'idagi 2 ta qafasda 24 ta to'ti bor. 5 ta qafasda nechta to'ti bo'ladi?



42 : 3, 72 : 4 ko'inishdagi ifodalar

178. Yechilishini tushuntiring:

1) $42 : 3 = \square$

$$42 : 3 = (30 + 12) : 3 = 30 : 3 + 12 : 3 = 10 + 4 = 14$$

2) $72 : 4 = \square$

$$72 : 4 = (60 + 12) : 4 = 60 : 4 + 12 : 4 = 15 + 3 = 18$$

179. $48 : 3$ $78 : 6$ $84 : 6$ $92 : 4$
 $72 : 3$ $91 : 7$ $75 : 3$ $96 : 8$

180. 100 litr sutdan 84 litri 3 litrli bankalarga, qolgani 2 litrli bankalarga quyildi. Sut nechta 3 litrli va nechta 2 litrli bankalarga quyilgan?

181. Berilgan shaklda nechta uchburchak va nechta to'rtburchak bor?



182. 88 ta kitobdan 36 tasi o'quvchilarga tarqatilgandan keyin 4 bog'lam kitob qoldi. Har bir bog'lamda nechtdan kitob bor?

183. Bobo 56 yoshda, nabirasi 14 yoshda. Necha yildan keyin bobo nabirasidan ikki marta katta bo'ladi?



184.	$45 : 3$	$84 : 7$	$78 : 3$	$96 : 4$
	$51 : 3$	$48 : 4$	$72 : 4$	$91 : 7$



185. Do'konga 5 ta o'ramda 90 m atlas keltirildi. Peshingacha ulardan 3 o'rami sotildi. Peshingacha necha metr atlas sotilgan?



O'tilganlarni mustahkamlash

186. $(2 + 2) : 2$ $(6 + 6) : 2$ $(7 + 7) : 7$

187. $(12 + 2) : 2$ $(6 + 12) : 3$ $(18 + 42) : 6$
 $(15 + 3) : 3$ $(8 + 16) : 4$ $(28 + 35) : 7$

- 188.** 1) Agar $a = 67$, $b = 18$ bo'lsa, $a + b$ va $a - b$ ifodalarning qiymatini toping.
 2) Agar $a = 3$, $b = 28$ bo'lsa, $a \cdot b$ ifodaning qiymatini toping.
 3) Agar $a = 80$, $b = 4$ bo'lsa, $a : b$ ifodaning qiymatini toping.

189. Rasm asosida masala tuzing va yeching:



18 kg




? kg

190. Bo'yi 8 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning perimetri 26 sm. Uning eni qancha?

Yechish rejasi:

1) Bo'yi va enining yig'indisi — $26 : 2$

2) Eni — $26 : 2 - 8$

191.  Palov tayyorlash uchun guruch va sabzi teng solinadi. Go'sht guruchdan 2 marta kam, yog' guruchdan 4 marta kam, piyoz esa guruchdan 8 marta kam solinadi. Agar 8 kg guruchdan palov tayyorlanmoqchi bo'linsa, ularning har biridan necha kilogramm sotib olish kerak?

192. $(10 + 4) : 2$ $(8 + 12) : 4$ $(14 + 35) : 7$

 $(12 + 6) : 3$ $(6 + 18) : 6$ $(27 + 45) : 9$

193.  5 ta savatda 65 kg uzum bor. Shunday 2 ta savatda necha kilogramm uzum bo'ladi?

194. $28 : 2$ $66 : 6$ $54 : 6$ $96 : 8$
 $36 : 3$ $88 : 4$ $91 : 7$ $99 : 9$

195. Do'konda 85 ta «Nestle» suvidan 61 tasi sotilgandan so'ng 3 qadoq qoldi. Har bir qadoqda nechtdan «Nestle» bor?

196. $39 : 3 + 17$ $28 + 65 : 5$ $42 : 3 + 56 : 8$
 $48 : 4 - 12$ $64 - 96 : 6$ $64 : 4 - 91 : 7$
 $51 : 3 + 25$ $87 - 72 : 4$ $88 : 8 + 99 : 9$

197. Do'konda birinchi kuni 25 kg, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 20 kg ortiq konfet sotildi. Agar har bir qutida 5 kg dan konfet bo'lsa, ikki kunda necha quti sotilgan?

198. 0 dan 8 gacha sonlarni kvadrat kataklariga shunday joylashtiring-ki, kvadratning har bir qatori va ustuni bo'yicha sonlar yig'indisi 12 ga teng bo'lsin.



199. $48 : 2$ $84 : 4$ $32 : 2$ $57 : 3$ $75 : 3$
 $33 : 3$ $96 : 3$ $45 : 3$ $56 : 4$ $84 : 7$

200. Bozorga 96 ta tarvuz olib kelindi. Peshingacha tarvuzlarning to'rtidan bir qismi sotildi. Sotish uchun nechta tarvuz qoldi?

Bo'lishni tekshirish

201. Tekshirishni tushuntiring:

$$48 : 3 = 16$$

$$\text{Tekshirish: } 16 \cdot 3 = 48.$$



Bo'lishni tekshirish uchun bo'linma bo'luvchiga ko'paytiriladi. Natija bo'linuvchiga teng bo'lsa, bo'lish to'g'ri bajarilgan bo'ladi.

202. Bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:

$$52 : 4$$

$$56 : 8$$

$$72 : 6$$

$$75 : 5$$

$$42 : 6$$

$$78 : 3$$

$$84 : 3$$

$$91 : 7$$

203. 48 dona pomidor 3 ta bankaga bir xil sonda solinib tuzlandi. Xuddi shunday yana 5 ta bankaga tuzlash uchun necha dona pomidor kerak bo'ladi?

204. To'g'ri to'rtburchakning yuzi 24 kv. sm ga teng. Uning bo'yi 4 sm bo'lsa, eni necha santimetrga teng? Berilgan bo'yi va topilgan eniga ko'ra to'g'ri to'rtburchakni chizing.

205. Nodira akasidan 6 yosh kichik. Akasi 3 yil avval 8 yoshda edi. Hozir Nodira necha yoshda?



206. Bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:



$$32 : 4$$

$$56 : 4$$

$$81 : 3$$

$$95 : 5$$

$$48 : 6$$

$$72 : 3$$

$$84 : 7$$

$$96 : 4$$

207. To'g'ri to'rtburchakning yuzi 32 kv. sm ga teng. Uning eni 8 sm ga teng bo'lsa, bo'yni toping. Berilgan eni va topilgan bo'yiga ko'ra to'g'ri to'rtburchakni chizing.



Ikki xonali sonni ikki xonali songa bo'lish

208. Yechilishini tushuntiring:

$$36 : 12 = \square$$

36 ning ichida nechta 12 borligini topamiz:

$12 \cdot 2 = 24$. Bu kam, 2 to'g'ri kelmas ekan.

$12 \cdot 3 = 36$. **Demak:** $36 : 12 = 3$.




Ikki xonali sonni ikki xonali songa bo'lishda bo'linmani tanlash usuli yordamida topish mumkin.

209. Bo'linmani 2, 3 va 4 sonlari orasidan tanlab, misollarni yeching:

$$\begin{array}{cccc} 24 : 12 & 42 : 14 & 56 : 28 & 63 : 21 \\ 44 : 11 & 33 : 11 & 56 : 14 & 84 : 21 \end{array}$$

210. Feruza 43 ta, E'zoza 35 ta xurmo terdi. Ularning har biri xurmolardan 3 tasini yedi. Qizlarda hammasi bo'lib nechta xurmo qoldi?

211. Kesmalarni o'lchang. AB kesma CD kesmadan necha marta uzun? EF kesmadan-chi?



212. Qanday to'rtta har xil sonni ketma-ket ko'paytirib, 40 sonini hosil qilish mumkin?



213. Bo'linmani 2, 3 va 4 sonlari orasidan tanlab, misollarni yeching:



$$\begin{array}{cccc} 22 : 11 & 44 : 11 & 48 : 16 & 60 : 20 \\ 34 : 17 & 38 : 19 & 45 : 15 & 88 : 22 \end{array}$$

214. Kamola 84 yoshli buvisidan 21 marta yosh. U necha yoshda? Agar onasi 42 yoshda bo'lsa, onasi buvisidan necha marta kichik?



215. $10 : 10$ $20 : 10$ $60 : 20$ $80 : 40$
 $30 : 30$ $40 : 20$ $60 : 30$ $80 : 20$

216. Bo'linmani 5, 6, 7, 8 va 9 sonlari orasidan tanlab, misollarni yeching:

$55 : 11$ $72 : 12$ $75 : 15$ $98 : 14$
 $77 : 11$ $96 : 12$ $99 : 11$ $78 : 13$

217. Kutubxonaga 84 ta kitob olib kelindi. Har bir bog'lamda 14 tadan kitob bo'lsa, nechta bog'lam kitob keltirilgan?

218. Rasm asosida masala tuzing va yeching:



219. Lift birinchi qavatdan uchinchi qavatga ko'tarilganda 8 m masofani bosib o'tdi. Birinchi qavatdan to'qqizinchi qavatga ko'tarilganda lift necha metr masofani bosib o'tadi?



220. $66 : 11$ $60 : 12$ $65 : 13$ $90 : 15$



$88 : 11$ $84 : 12$ $91 : 13$ $84 : 14$

221. Do'konda 90 kg shakar 18 ta paketga solindi. Birinchi kuni 12 ta paketdagi shakar sotildi. Do'konda necha kilogramm shakar qoldi?



222. $30 : 2$ $50 : 2$ $70 : 2$ $90 : 2$
 $30 : 15$ $50 : 25$ $70 : 35$ $90 : 45$

223. $48 : 12 + 18$ $22 - 85 : 17$ $70 : 14 \cdot 4$
 $33 : 11 + 29$ $41 - 26 : 13$ $80 : 16 \cdot 8$

224. 64 dona olxo'ri 4 ta likopchaga teng taqsimlab qo'yib chiqildi. Likopchalarga nechtdan olxo'ri qo'yilgan? Masalani yeching va unga teskari bo'lgan masala tuzing.

Yechilishi: $64 : 4 = 16$ (ta olxo'ri).



Teskari masala:

64 dona olxo'ri likopchalarga 16 tadan qo'yib chiqildi. Olxo'ri nechta likopchaga qo'yilgan?

Yechilishi: $64 : 16 = 4$ (ta likopcha).

225. 72 ta daftar sinf o'quvchilariga 2 tadan tarqatildi. Sinfda necha nafar o'quvchi bor? Masalani yeching va unga teskari bo'lgan masala tuzing.

226. Bir sutka davomida soatning minut mili soat mili bilan necha marta ustma-ust tushadi? Necha marta o'zaro to'g'ri burchak hosil qiladi?



227. $56 : 14 + 17$ $31 - 72 : 12$ $88 : 44 \cdot 4$
 $51 : 17 + 38$ $43 - 78 : 13$ $84 : 21 \cdot 9$



228. Bitta ko'ylak tikishga 3 m gazlama sarflanadi. 66 m gazlamadan nechta ko'ylak tikish mumkin? Masalani yeching va unga teskari bo'lgan masala tuzing.



Ko'paytirishni tekshirish

229. Tekshirishni tushuntiring:

$$9 \cdot 7 = 63$$

Tekshirish: $63 : 9 = 7$ yoki $63 : 7 = 9$.



Ko'paytirishni tekshirish uchun ko'paytma ko'paytuvchilardan biriga bo'linadi. Natija ikkinchi ko'paytuvchiga teng bo'lsa, ko'paytirish to'g'ri bajarilgan bo'ladi.

230. Ko'paytirishni bajaring va natijani tekshiring:

$$2 \cdot 14$$

$$4 \cdot 17$$

$$6 \cdot 13$$

$$12 \cdot 8$$

$$23 \cdot 3$$

$$18 \cdot 5$$

$$14 \cdot 7$$

$$9 \cdot 11$$

231. 32 nafar o'quvchining chorak qismi musiqa to'garagiga, 9 nafari sport to'garagiga boradi. Qaysi to'garakda sinf o'quvchilari ko'p?

232. Uzunligi 16 mm bo'lgan AB kesma va undan 6 marta uzun bo'lgan CD kesma chizing.

233. Qafasdagi 4 ta qush 4 ta bolaga bittadan berilsa-da, 1 ta qush qafasda qolishi mumkinmi?



234. Ko'paytirishni bajaring va natijani tekshiring:

$$3 \cdot 13$$

$$5 \cdot 19$$

$$8 \cdot 11$$

$$16 \cdot 4$$

$$24 \cdot 2$$

$$17 \cdot 4$$

$$12 \cdot 7$$

$$6 \cdot 15$$



235. Uchburchakning bir tomoni 7 sm, ikkinchi tomoni 5 sm. Agar uchburchakning perimetri 18 sm bo'lsa, uchinchi tomoni qancha?



O'tilganlarni mustahkamlash

236. $40 : 20$ $60 : 20$ $80 : 20$ $90 : 30$
 $40 : 40$ $60 : 30$ $80 : 40$ $90 : 90$

237. Bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:
 $60 : 4$ $65 : 5$ $72 : 6$ $96 : 8$
 $66 : 11$ $60 : 12$ $65 : 13$ $90 : 15$
 $88 : 11$ $84 : 12$ $91 : 13$ $84 : 14$

238. 96 kg qand 16 ta paketga solib chiqildi. Birinchi kuni 4 ta paketdagi qand sotildi. Necha kilogramm qand sotilgan? Sotish uchun yana necha kilogramm qand qoldi?

239. To'g'ri to'rtburchakning perimetri 32 sm. Agar uning bir tomoni 6 sm bo'lsa, qo'shni ikkinchi tomoni necha santimetrga teng?

240. 5 ta 2 soni orasiga to'rt amal ishorasining har biridan bittadan shunday qo'yingki, natijada 3 soni hosil bo'lsin.



241. Bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:

$48 : 4$ $52 : 2$ $72 : 8$ $84 : 6$
 $24 : 12$ $42 : 14$ $56 : 28$ $63 : 21$
 $44 : 11$ $55 : 11$ $56 : 14$ $77 : 11$



242. 45 kg pomidor 15 ta bir xil bankaga solib tuzlandi. 96 kg pomidorni tuzlash uchun nechta shunday banka kerak bo'ladi?



243. $2 \cdot 11$ $3 \cdot 11$ $4 \cdot 11$ $5 \cdot 11$
 $2 \cdot 22$ $3 \cdot 22$ $4 \cdot 22$ $6 \cdot 11$


244. Ko'paytirishni bajaring va natijani tekshiring:

$2 \cdot 15$ $4 \cdot 13$ $8 \cdot 12$ $7 \cdot 14$
 $14 \cdot 4$ $16 \cdot 5$ $11 \cdot 9$ $12 \cdot 5$

245. Birinchi kuni kutubxonaga 13 ta bog'lamda 91 ta kitob olib kelindi. Ikkinchi kuni yana 3 ta shunday bog'lamli kitoblar keltirildi. Ikkinchi kuni nechta kitob keltirilgan?

246. $32 : 2 + 24$ $16 \cdot 2 + 27$ $65 : 5 + 19 \cdot 3$
 $75 : 5 + 27$ $12 + 42 \cdot 2$ $96 : 8 + 6 \cdot 14$

247. Ko'pburchaklarning tomonlarini millimetrlarda o'lchang va perimetrlarini toping:



248. 10 ta cho'pdan necha xil to'g'ri to'rtburchak yasay olasiz?



249. Ko'paytirishni bajaring va natijani tekshiring:



$3 \cdot 12$ $5 \cdot 17$ $6 \cdot 13$ $6 \cdot 16$
 $16 \cdot 3$ $12 \cdot 6$ $19 \cdot 5$ $17 \cdot 3$

250. 48 m adrasdan 16 ta ko'y-lak tikildi. Yana 12 ta ko'y-lak tikish uchun necha metr adras kerak bo'ladi?



Qoldiqli bo'lish (jadval ichida)

251. 7 ta yong'oqni 3 o'rtoq teng taqsimlab olishmoqchi bo'lishdi. Bolalarning har biriga nechtdan yong'oq tegadi?

Yechilishi: $7 : 3 = 2$ (1 qold.). 1 – qoldiq son.

Javob: 2 tadan yong'oq tegadi. 1 ta yong'oq qoldiq sifatida ortib qoladi.



7 : 3 = 2 (1 qold.) ifoda quyidagicha o'qiladi: 7 ni 3 ga bo'lsak, bo'linma 2 ga teng bo'ladi va 1 qoldiq qoladi.

252. Qoldiqli bo'lishlarni bajaring:

$15 : 2$

$16 : 3$

$21 : 5$

$25 : 6$

$19 : 2$

$25 : 3$

$36 : 5$

$37 : 6$

253. 18 dona anor 4 ta likopchaga bir xilda qo'yilishi kerak. Bitta likopchaga necha dona anor to'g'ri keladi? Necha donasi qoldiq sifatida ortib qoladi?

254. Uzunliklari 12 sm va 5 sm bo'lgan ikkita kesma chizing. Birinchi kesma uzunligi ikkinchi kesma uzunligiga bo'linganda necha santimetrli kesma qoldiq sifatida qoladi?

255. Tarozining birinchi pallasida 3 ta bir xil handalak bor. Ikkinchi pallasiga shunday 1 ta handalak va 12 ta bir xil shaftolini qo'ysak, tarozi pallasari tenglashadi. 1 ta handalak nechta shaftolining massasiga teng?



256. Qoldiqli bo'lishlarni bajaring:



$$\begin{array}{cccc} 13 : 2 & 13 : 3 & 58 : 4 & 89 : 5 \\ 63 : 2 & 17 : 4 & 44 : 5 & 95 : 6 \end{array}$$

257. 100 kg uzum har bir yashikka 8 kg dan qilib joylansa, nechta yashik kerak bo'ladi? Necha



kilogramm uzum ortib qoladi?

258. Yechilishini tushuntiring:

- 1) $5 : 2 = 2$ (1 qold.), $1 < 2$ (qoldiq < bo'luvchi)
- 2) $8 : 3 = 2$ (2 qold.), $2 < 3$ (qoldiq < bo'luvchi)
- 3) $11 : 4 = 2$ (3 qold.), $3 < 4$ (qoldiq < bo'luvchi)



Qoldiqli bo'lishda qoldiq son bo'luvchidan doim kichik bo'lishi kerak.

259. Yechilishini tushuntiring:

$$27 : 4 = \square \text{ (\square qold.)}$$

Yechilishi: 27 gacha sonlar ichida 4 ga bo'linadigan eng katta son – 24.

$$24 : 4 = 6$$

$27 - 24 = 3$; $3 < 4$. **Demak:** $27 : 4 = 6$ (3 qold.).

260. Qoldiqli bo'lishlarni bajaring:

$$\begin{array}{cccc} 22 : 3 & 33 : 5 & 57 : 6 & 56 : 9 \\ 18 : 4 & 49 : 5 & 43 : 7 & 78 : 8 \end{array}$$

261. Gulzordan uzilgan 48 ta gul 5 ta guldonga teng taqsimlab chiqilmoqchi bo'lindi. Har bir guldonga nechtdan gul solingan? Necha gul qoldiq sifatida ortib qolgan?

262. Kesmalarning uzunligini o'lchang. AB kesma uzunligi CD kesma uzunligiga bo'lsa, necha santimetr uzunlikdagi kesma qoldiq sifatida ortib qoladi? Qoldiq kesmani chizib ko'rsating.



263. Bo'sh kataklarga 3 va 4 sonlarini shunday joylashtiringki, har bir qator va ustun bo'yicha har gal yig'indi 9 chiqsin.



	2	
2		
		2

264. Qoldiqli bo'lishlarni bajaring:



$$\begin{array}{cccc}
 11 : 2 & 30 : 4 & 48 : 5 & 61 : 8 \\
 28 : 3 & 52 : 6 & 61 : 7 & 78 : 9
 \end{array}$$

265. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:



72 yoshda



Otasidan
2 marta yosh



Bobosidan
8 marta yosh



Qoldiqli bo'lish (jadvaldan tashqari)

266. Yechilishini tushuntiring:

$$96 : 7 = \square (\square \text{ qold.})$$

Yechilishi: 96 ichida 7 ga bo'linadigan eng katta sonni izlaymiz: $7 \cdot 12 = 84$; $7 \cdot 13 = 91$; $7 \cdot 14 = 98$.

Ular orasidan 91 ni tanlaymiz. $96 - 91 = 5$;
 $5 < 7$. **Demak:** $96 : 7 = 13$ (5 qold.)



Qoldikli bo'lishni bajarishning bunday usuli tanlash usuli deb ataladi.

267. Qoldikli bo'lishlarni bajaring:

$25 : 2$	$54 : 4$	$64 : 5$	$87 : 8$
$38 : 3$	$75 : 6$	$95 : 7$	$98 : 9$

268. 32 ta qizil chinnigul va 21 ta oq chinnigulni 5 ta guldonga bir xilda solish kerak. Har bir guldonga nechta qizil va nechta oq chinnigul to'g'ri keladi? Nechta qizil chinnigul va nechta oq chinnigul qoldiq sifatida ortib qoladi?

269. Sirkul yordamida radiusi 2 sm 4 mm va 3 sm 8 mm bo'lgan aylanalar chizing. Ularning markazlarini belgilang, diametrlarini o'tkazing va o'lchang.

270. Agar bir songa 7 ni qo'shib, yig'indini 7 ga bo'lib, bo'linmadan 7 ni ayirib, ayirma 7 ga ko'paytirilsa, natija 7 chiqadi. Bu qanday son?



271. Qoldikli bo'lishlarni bajaring:

$31 : 2$	$63 : 4$	$79 : 6$	$88 : 6$
$37 : 3$	$84 : 5$	$83 : 7$	$93 : 7$



272. Birinchi daraxtdan 45 kg, ikkinchisidan 54 kg xurmo terib olindi. Xurmolar 8 ta yashikka joylandi. Necha kilogramm xurmo ortib qoldi?



Qoldiqli bo'lishni tekshirish

273. Tekshirilishini tushuntiring:

$$31 : 7 = 4 \text{ (3 qold.)}$$

Tekshirilishi: $4 \cdot 7 + 3 = 28 + 3 = 31.$



Qoldiqli bo'lishni tekshirish uchun bo'linma bo'luvchiga ko'paytirilib, qoldiq son qo'shiladi. Natija bo'linuvchiga teng bo'lsa, qoldiqli bo'lish to'g'ri bajarilgan bo'ladi.

274. Amallarni bajaring va natijani tekshiring:

$17 : 2$

$38 : 4$

$64 : 6$

$79 : 8$

$25 : 3$

$47 : 5$

$58 : 7$

$95 : 9$

275. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:



37 dona nok

276. Sirkul yordamida 1 sm 8 mm radiusli aylana va 2 sm 5 mm radiusli doira chizing. Ularning markazlarini belgilang va diametrlarini o'tkazing. Aylana va doiraning diametrlarini toping.

277. 3 ta 2 raqamidan 24 sonini hosil qila olasizmi? 20 sonini-chi?



278. Amallarni bajaring va natijani tekshiring:



$17 : 3$

$47 : 4$

$68 : 5$

$88 : 9$

279. Bozordan sotib olingan mandarinlar sanalganda 52 ta ekanligi ma'lum bo'ldi. Ular 6 ta likopchaga teng taqsimlab chiqildi. Har bir likopchaga nechtdan mandarin qo'yilgan? Nechta mandarin qoldiq sifatida ortib qolgan?



Uch va undan ortiq ko'paytuvchilarni ko'paytirish

280. Yechilishini tushuntiring:

$2 \cdot 3 \cdot 4 = \square$

1) $2 \cdot 3 \cdot 4 = 6 \cdot 4 = 24$

2) $2 \cdot 3 \cdot 4 = 2 \cdot 12 = 24$

3) $2 \cdot 3 \cdot 4 = 2 \cdot 4 \cdot 3 = 8 \cdot 3 = 24$



Uch va undan ortiq ko'paytuvchilarni bir-biriga turli tartibda ko'paytirish mumkin.

281. Yechilishini tushuntiring:

$3 \cdot 4 \cdot 5 = \square$

$3 \cdot 4 \cdot 5 = 3 \cdot (4 \cdot 5) = 3 \cdot 20 = 60$



Uch va undan ortiq ko'paytuvchilarni ko'paytirishda ko'paytuvchilar qavslar yordamida guruhlab olinishi mumkin.

282. Ko'paytirishning guruhlash qonunidan foydalanib amallarni bajaring:

$$2 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 2$$

$$3 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 4$$

$$4 \cdot 2 \cdot 5$$

$$2 \cdot 3 \cdot 2 \cdot 3$$

$$4 \cdot 2 \cdot 4 \cdot 2$$

$$2 \cdot 6 \cdot 4$$

Namuna: $2 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 2 = (2 \cdot 2) \cdot (2 \cdot 2) = 4 \cdot 4 = 16$.

283. Savatdagi shirin kulchalar 8 nafar bolaga 4 tadan berilgandan keyin 3 ta qoldi. Savatda jami nechta shirin kulcha bor edi?

284. Qanday qilib tortni pichoq bilan 3 marta kesib, 8 bo'lakka bo'lish mumkin?



285. Ko'paytirishning guruhlash qonunidan foydalanib amallarni bajaring:



$$5 \cdot 3 \cdot 2 \cdot 3$$

$$5 \cdot 2 \cdot 5 \cdot 2$$

$$2 \cdot 8 \cdot 5$$

$$4 \cdot 2 \cdot 5 \cdot 1$$

$$2 \cdot 4 \cdot 1 \cdot 5$$

$$5 \cdot 7 \cdot 2$$

286. 3 ta xonaning har birida bittadan qandil bor. Har bir qandilga 5 tadan lampochka qo'yilgan. Agar qandillardagi 2 ta lampochka kuygan bo'lsa, yaroqli lampochkalar nechta?



O'tilganlarni mustahkamlash

287. Qoldiqli bo'lishlarni bajaring:

$$3 : 2$$

$$5 : 2$$

$$4 : 3$$

$$5 : 3$$

$$10 : 3$$

288. Amallarni bajaring va natijani tekshiring:

$$31 : 4$$

$$53 : 4$$

$$65 : 6$$

$$58 : 8$$

$$46 : 3$$

$$88 : 5$$

$$54 : 7$$

$$49 : 9$$

289. Ko'paytirishning guruhlash qonunidan foydalanib amallarni bajaring:

$$2 \cdot 3 \cdot 2 \cdot 4$$

$$3 \cdot 3 \cdot 2 \cdot 5$$

$$5 \cdot 2 \cdot 4$$

$$2 \cdot 5 \cdot 2 \cdot 4$$

$$3 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 5$$

$$3 \cdot 6 \cdot 5$$

290. Katak va chizikli daftarlar sotib olinishiga doir quyidagicha ifodali masala tuzing: $28 + 28 : 2$.

291. Sirkul yordamida radiusi 2 sm 5 mm va 3 sm 4 mm bo'lgan doiralar chizing. Ularning markazlarini belgilang, diametrlarini o'tkazing va o'lchang.

292. Soat millari 12 dan 20 minut o'tganini ko'rsatmoqda. Agar shu holatda soat va minut millari o'рни o'zaro almashtirib qo'yilsa, soat nechani ko'rsatadi?



293. Amallarni bajaring va natijani tekshiring:

$$35 : 2$$

$$54 : 4$$

$$59 : 5$$

$$94 : 8$$

$$41 : 3$$

$$27 : 6$$

$$81 : 7$$

$$95 : 9$$



294. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:



8 ta konfet



6 ta konfet



? ta konfet